



KRIMINALISTIK TAKTIKANING MOHIYATI

Majidova Muslina Baxtiyor qizi
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yo’nalishi
1-bosqich 32-guruh o’quvchisi

Annotatsiya:

Maqolada muallif Kriminalistika fanining bo‘limlaridan biri bo‘lgan kriminalistika taktikasi bo‘limi va mazkur bo‘lim tomonidan jinoyatlarni tergov qilishda amalga oshiriladigan tergov harakatlarining taktik jihatlari xususida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishi, ushbu tavsiyalarning ahamiyati yuzasidan fikr yuritgan.

Kalit so‘zlari: dastlabki tergov, kriminaliktik taktika, taktik uslub, protsessual qoidalar, jinoyatlarni fosh etish, ziddiyatli vaziyat, voqeani sahnalashtirish.

Аннотация:

В статье автор рассуждал о разработке научных рекомендаций в части тактических аспектов следственных действий, осуществляемых при расследовании преступлений отделом криминалистической тактики, одним из разделов криминалистической науки, о значении этих рекомендаций.

Ключевые понятия: предварительное расследование, криминальная тактика, тактический стиль, процессуальные правила, раскрытие преступлений, конфликтная ситуация, инсценировка события.

Abstract:

In the article, the author reflected on the development of scientific recommendations on the tactical aspects of investigative actions carried out in the investigation of crimes by the Department of criminalistic tactics, one of the sections of Criminalistic science, and the importance of these recommendations.

Key concepts: preliminary investigation, criminalistic tactics, tactical style, procedural rules, exposing crimes, conflict situation, staging an event.

Tergov va surishtiruv faoliyatini takomillashtirish, tergov ishini sifatini hozirgi kun talabiga javob beradigan darajaga ko‘tarish uchun qonunda belgilangan tartibni qo‘llash ko‘p hollarda yetarli bo‘lmaydi. Va buning uchun Kriminalistika fanida alohida bo‘lim mavjud bo‘lib, u kriminalistika taktikasi deb nomlanadi. Kriminatistika taktikasi bo‘limi bevosita jinoyatlarni tergov qilish va fosh etishda qo‘llaniladigan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi¹da mustahkamlangan tergov harakatlarning taktik jihatlarini o‘rganibgina qolmasdan, tergov harakatlarni o‘tkazish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Qonunda belgilangan tartib qoidani qo‘llash bilan bir qatorda, har bir tergov harakatini o‘tkazishda kriminalistika fani ishlab chiqqan taktik uslublarni qo‘llash ham maqsadga muvofiqdir.

Kriminalistik taktikasi deganda tergov jarayonida protsessual tergov harakatlarini o‘tkazishda qo‘llanadigan taktik uslublarning yig‘indisi tushuniladi.

Qonunda belgilangan har bir tergov harakatining tashkil qilinishi va o‘tkazilishi tartibi so‘roq qilinuvchining shaxsini aniqlash, jinoiy ishga aloqasi, ishga oid ma’lumotlarni erkin so‘zlab berishi, so‘ngra savol-javob o‘tkazish masalalaridan iboratdir. Taktik uslublar esa protsessual qoidalarga rioya qilingan holda so‘roqni qanday tashkil qilib, kimni birinchi navbatda chaqirish, so‘roqqa tayyorgarlik ko‘rishda qanday holatlarga e’tibor berishni, savol-javobni jinoiy ishning alohida holatlariga qaratilgan qilib tuzish kabi tavsiyalardan iboratdir.

Taktik uslublarning qaysi biri qanday vaziyatga nisbatan qo‘llanilishi tergov jarayonida hal etiladi.

Ayrim taktik usullar tergov amaliyotida o‘z ahamiyati va o‘rnini topganligi sababali jinoyat-protsessual qonuniga kiritilgan bo‘lib, ularni bajarish shartdir, aks holda qonun belgilagan tartib buzilgan bo‘lib olingan dalil o‘z xususiyatini yo‘qotadi.

Kriminalistika taktikasi tergov jarayonida qo‘llanadigan tavsiyalar tizimi bo‘lganligi uchun ular, jinoyatning turidan qat’iy nazar, umumiylashtirishga ega hisoblanadi. Aniq bir jinoyatni tergov qilishda esa taktik uslublar jinoyatning sodir qilish usuli, maqsadi, oqibati kabi hollarga nisbatan mos ravishda qo‘llaniladi. Tergov jarayonida turli ziddiyatli vaziyatlar hosil bo‘ladi, to‘plangan dalillarning bir-biriga zid bo‘lishi, dastlabki tergov harakatlaridan olingan ma’lumotlar asosida hosil bo‘lgan farazlarning qarama-qarshiligi kabilar. Mazkur vaziyatlarni bartaraf qilish uchun tergovchi keyingi navbatda o‘tkaziladigan tergov va tezkor harakatlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz/docs/111460.



rejalashtirishi lozim. Tuzilgan versiyalarning qaysilarini birinchi navbatda, qaysilarini kompleks ravishda tekshirish lozimligini hal qiladi.

Tergovchi tergov harakatlariga tayyorgarlik hamda tashkiliy ishlarni o'tkazishda zaruratga qarab kerakli mutaxassislarni taklif etadi va ulardan tegishli ma'lumotlarni, zarur bo'lgan maxsus bilimlar haqida maslahatlarni oladi.

Jinoyatni o'z vaqtida, to'liq va xolisona ochish, isbotlash uchun amaliyotda "taktik operatsiya" nomi bilan yuritiladigan usul ham mavjud. Mazkur usulning asosiy maqsadi tergov harakati oldida turgan, barcha masalalarni tez, odilona hal qilishdan iboratdir. Bu usul tergov va tezkor-qidiruv harakati bilan hamkorlikda o'tkaziladigan taktik uslublardir.

Tergov taktikasining sohasi bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki qismdan iborat: biri umumiylasalar bo'lgan tergov versiyalari va tergovni rejalashtirish, ikkinchisi tergov harakatlarini tezkor-qidiruv tadbirlari bilan hamkorlikda bajarish usullarini o'z ichiga oladi.

Tergovchining faoliyatiga tergov taktikasining tizimi bilan bir qatorda, umumlashtirilgan amaliyot tajribasidan olingan xulosalar xizmat qiladi. Jinoyat protsessual qonuni tergov harakatlarining umumiylushunchasi, o'tkazish tartibi va rasmiylashtirish masalalarini ko'rsatib beradi. Kriminalistika protsessual qonunga asoslangan holda ilg'or tergov tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalarini jinoyatni tavsiyatiga qarab uni ochishga, isbotlashga va oldini olishga qaratilgan konkret taktik tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Kriminalistika taktikasi Kriminalistika fanining ilmiy texnik vositalari bilan shug'ullanadigan qismi, ya'ni Kriminalistika texnikasi bilan uzviy bog'liqdir.

Texnika vositalari tergov jarayonida dalillarni qidirib topishda, ularni ko'chirib olishda, mustahkamlashda va tadqiq etishda qo'llanadi. Bu harakatlar tergov taktikasi faoliyatida o'z ifodasini topadi, ya'ni Kriminalistikaning texnika va taktikasi uzviy bog'liq bo'lib, jinoyatni tergov qilish uslubiyotida amaliy qo'llanilishi ifoda qilinadi.

Kriminalistika taktikasi yuridik psixologiya fanining nazariyasi bilan ham bog'liq bo'lib, tergov harakatlarini tashkil qilish va o'tkazishda taktik uslublar bilan bir qatorda psixologik qoidalarga ham asoslanish lozim bo'ladi. Jumladan, hodisa joyida jinoyatchining qasddan izlarni jinoyat qurollarini yo'qotishga qaratilgan harakatlaridan darak beruvchi alomatlarni tahlil qilib tahminlarni to'g'ri tuzish va

xaqiqatni aniqlashda taktik uslublarni yuridik psixologiya tavsiyalari bilan birgalikda qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tergov qilish jarayonida tergovchi belgilangan va o'tkazmoqchi bo'lgan protsessual harakatni qayerda, qanday sharoitda, kimlar ishtirokida o'tkazish haqidagi masalalarini oldindan hal qilib, tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bu borada operativ xodimlarning yordami ahamiyatlidir, ular zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezkorlik-qidiruv choralari natijasida ta'minlab beradilar. Tergovchi esa to'plangan ma'lumotlarni mazkur holatda tadbiq etish uchun ularni psixologiya va mantiq bilimlariga asoslangan holda tahlil qiladi.

So'roq o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida so'roq qilinuvchining shaxsini aniqlash, undan to'la va xakikatga mos axborotni olish uchun taktik uslublarni belgilash, yolg'on ko'rsatma beradigan bo'lsa ish materialidagi to'plangan dalillar bilan fosh etish kabi tadbirlarni avvaldan belgilab olish, o'tkaziladigan tergov harakatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Jinoiy ishda gumonlanuvchi, so'ngra uni ayblanuvchi sifatida so'roq qilish va ish yuzasidan to'la va to'g'ri ko'rsatma olish uchun uning shaxsini aniqlash, umumtaktik uslublarni qaysi birini qanday holatda qo'llashlikni belgilaydi.

So'roq qilinuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar u bilan muloqotda bo'lish jarayonida qo'llanadigan taktik va psixologik uslublarni uning yoshi, kasbi, hayot kechirish tarzi, jinoyatni sodir etishda va uni izlarni yo'qotishga qaratilgan uslublariga qarab tanlash imkonini beradi.

Taktik uslublarni yanada samarali bo'lishi uchun jinoiy ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni gumon-tahminlarni yuritish bilan ham tekshirish lozim. Bu borada tergov harakatlarini tezkor-qidiruv choralari bilan hamkorlikda o'tkazish va qo'llanadigan taktik uslublarini tergovning aynan shu bosqichdagi holatiga mos ravishda tanlash katta ahamiyatga egadir.

So'zimiz yakunida ta'kidlash mumkinki, jinoyat ishini tekshirishning boshlang'ich bosqichida, hodisa joyini ko'zdan kechirishda, gumon qilinuvchini so'roq qilishda turli qarama-qarshi vaziyatlar mavjud bo'ladi. Bulardan ko'proq uchraydigan hollaridan biri, jinoyatning izlarini yo'qotishga qaratilgan yoki sahnalashtirishga (instsenirovka) qaratigan harakatlaridir. Bular natijasida jinoyatning oqibatiga tegishli bo'lgan izlarni yo'qligi, hosil bo'ladigan versiyalarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi, bir jinoyatni ikkinchi boshqa yengilroq jinoyat ko'rinishiga moslamoq, masalan, qasddan sodir qilingan qotillikni ehtiyoitsizlik yoki baxtsiz

hodisa gumon qilinuvchi aybini yumshatish yoki mutloq tan olmaslik maqsadida zaruriy mudofaa chorasini qo'llaganini aytishi va shunga ko'ra tegishli izlarga, vaziyatlarga asoslanishi. Mana shunday vaziyatlarni haqiqiy yoki sun'iy hosil bo'lganligini aniqlash uchun tergovchi versiya yuritishi va ularni tekshirishda taktik uslublarni va mutaxassislik mahoratini ishlata olishi muhimdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz/docs/111460.
3. Kriminalistika. Darslik “Adolat”nashriyoti. –T.: 2003-y. 1-jild. Prof. F.A.Abdumajidov, dots. A.Norboyev, dots. R.Alimova va boshqalar.
4. Kriminalistika taktikasi. O'quv qo'llanma “Yangi asr avlod” -T.: 2000-y.
5. Вопросы назначения и производства автотехнической экспертизы в жур. “Следователь” федеральное издание часть и закон №12 М.1999 г.
6. S. Otaxo'jayev. R. Alimova. “Sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish masalalari” - T.: “Yangi asr avlod”. 2001-y.